



ALEKSANDR FAYNBERGNING HAYOT YO'LI VA UNING TAHLILI

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan sarmahsul shoir, yozuvchi va tarjimon Aleksandr Faynbergning hayot yo'li va uning o'lmas, nodir asarlari tahlil qilinadi. Aleksandr Faynberg asli rusiy zabon adib bo'lishiga qaramasdan Rossiyaga o'zbek ijodkorlarini tanitgan va ularning asarlari hamda hayot yo'lini Rossiyada targ'ib qilgan ijodkor hamdir.

Kalit so'zlar: Madaniy aloqalar, Pushkin medali, "Ruhlar isyoni", "Oqqushlar galasi".

Kirish. Aleksandr Faynberg o'zbek adabiyotiga sezilarli hissa qo'shgan takrorlanmas shoirdir. U 1939-yilda Toshkentda tug'ilgan. Uning durdona asarlarini haligacha kitobxonlar qo'llaridan qo'ymay o'qishadi, hamon uning ijodiga qiziqish baland.

Aleksandr Faynberg ko'plab she'r va asarlar muallifidir. Buni uning nasriy asarlariga yigirmadan ortiq multfilmlar kirishi bilan isbotlay olamiz. Bundan tashqari, u yettita badiiy filmlarga ssenariy ham yozgan. Tabiiyki, uning asarlari o'zbek tiliga ham o'girilgan va "Chig'ir" nomi ostida nashr qilingan. U O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy aloqalarga ham sezilarli hissa qo'shgan. Uning bu ishlarining natijasi o'laroq, 2009-yilda Rossiya prezidenti tomonidan Pushkin medali bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg ijodida falsafiylik, obrazlilik muhim o'rin tutadi. Uning she'rlari hayotiyliigi bilan ajralib turadi. U har ikki davlatning — Rossiya va O'zbekistonning asl farzandidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodining-bugungi-kundagi-v2.html>
2. <https://arboblar.uz>
3. <https://in-academy.uz>
4. <https://esiconf.org>